


108. Simmetrik shakllar

Yondosh mavzu:
grafika.


To'g'ri chiziqlar,
kesmalar, nurlar.



1. Bu shakllardan qaysi birida simmetriya o'qi eng ko'p?



2. Uchburchak yasang. Uni qizil chiziqqa nisbatan simmetrik akslantiring. Burchak o'lchagich bilan uning burchaklarini aniqlang.





3. Daftaringizda $AB = 5$ cm kesma yasang. Markazi A nuqtada bo'lgan 3 cm radiusli aylana yasang. Markazi B nuqtada bo'lgan xuddi shunday radiusli aylana yasang. Bu aylanalar kesishadimi? Ularning umumiy sohalarini bo'yang. Simmetrik shakl hosil bo'ldimi?

4. To'g'ri to'rtburchakning yuzi 36 cm^2 . Uning perimetri qanday bo'lishi mumkin? Har bir perimetr uchun ifoda yozing va ularning qiymatini hisoblang.



5. Daftaringizga shu shakllardan ixtiyoriy birini kataklar bo'yicha ko'chirib chizing. Bo'yalgan qismning yuzi kataklarda qanday?




6. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching.




9




3 marta ko'p



5 ta kam






7. Rasmda parallel va perpendikular chiziqlarni toping.



108. Simmetrik shakllar




8. Rasmlar bo'yicha tenglamalar tuzing. Bu tenglamalarni qanday yechish mumkinligini ayting. Tenglamalardan birini tekshirish bilan yeching.



9. Akmal raqamlari yig'indisi bir xil bo'lgan ikkita uch xonali son tanladi. U katta sondan kichik sonni ayirdi. Akmalda eng katta ayirma qanday bo'lishi mumkin?



10. Bu rasmning chap yarmini daftaringizga ko'chirib chizing. Uning o'ng tomonini shunday chizingki, simmetrik shakl hosil bo'lsin.



11. Ifodalar yozing va ularning qiymatini hisoblang.

- a) 56 872 va 45 291 sonlari yig'indisidan 13 993 sonini ayiring.
- b) 67 900 va 12 387 sonlari ayirmasiga 12 344 sonini qo'shing.
- d) 35 va 678 sonlari ko'paytmasini 14 soniga bo'ling.
- e) 3 500 va 50 sonlari bo'linmasini 46 soniga ko'paytiring.